



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 29 - sentabr

153-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Yer maydonini qisman zaxiraga qaytarish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5, 36 va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, Sariosiyo tuman hokimining 2021-yil 22-sentyabrdagi 01-20/559-son va Sariosiyo tumanidagi “Sangardak-Tosh” MCHJ qo‘shma korxonasining 2021-yil 20-sentyabrdagi 09/3-son xatlarini ko‘rib chiqib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Sariosiyo tuman hokimining 2021-yil 22-sentyabrdagi 01-20/559-son va Sariosiyo tumanidagi “Sangardak-Tosh” MCHJ qo‘shma korxonasining 2021-yil 20-sentyabrdagi 09/3-son xatlari inobatga olinsin.

2. Sariosiyo tumani Dashnabot massivi “Anorzor” MFY hududidagi “Sangardak-Tosh” MCHJ qo‘shma korxonasi hisobidagi qishloq xo‘jalik xaritasining 48q-dala konturidagi jami 3,50 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonidan 1,50 gektari Sariosiyo tumani hokimligi zaxira yer fondiga qaytarib olinsin.

3. Kadastr palatasi viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan tuman yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritishni ta‘minlasin

4. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e‘lon qilinsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi**



**Bobolov T.A.**